

**BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA IJTIMOY-IQTISODIY TENGLIKNI
TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI**

Shamsiyeva Nigora Rafiq qizi

Zarmed universiteti

Aniq, tabiiy, muhandislik fanlari va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilinadi. Viloyatning iqtisodiy ko'rsatkichlari taqdim etilib, 2024 yilga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning o'sishi tahlil qilindi. Mahalliy resurslardan foydalanish, fermerlarni qo'llab-quvvatlash, texnologik modernizatsiya va eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabilarni yanada rivojlantirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar ko'rib chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy tenglik, Buxoro viloyati, mahalliy resurslar, chorvachilik, baliqchilik, texnologik modernizatsiya, innovatsiyalar, eksport imkoniyatlari, sug'orish tizimi, oziq-ovqat mustaqilligi, meva-sabzavot ishlab chiqarish, iqtisodiy ko'rsatkichlar

Kirish

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi ko'plab kishilarga ish beruvchi sektor bo'lib, ayniqsa qishloq joylarida aholi bandligini ta'minlaydi. Agrar sektorda ishlovchilar o'z oilalari uchun barqaror daromad manbai yaratish imkoniyatiga ega. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish orqali aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqarish orqali tashqi bozorga bog'liq bo'lmasdan milliy talabni qondirish imkoniyati ortadi. Ko'plab davlatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilib, xorijiy valyuta kiritadi va tashqi savdodan daromad oladi. Bu iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlash sanoati uchun xomashyo manbai hisoblanadi. Ushbu mahsulotlardan oziq-ovqat, to'qimachilik, farmatsevtika kabi ko'plab tarmoqlarda foydalaniladi. Qishloq xo'jaligini ekologik jihatdan to'g'ri boshqarish, barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tuproq unumdorligini saqlab qolish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka hissa O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davlat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytirish va xalq farovonligini oshirish maqsadlariga qaratilgan. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida bir qator asosiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va yerlarni samarali boshqarish tizimini yaratish maqsadida yer islohoti amalga oshirilmoqda. Fermerlarga yer maydonlarini ijaraga olish imkoniyatlari kengaytirildi.

2020-yildan boshlab dehqonchilikda klaster tizimi joriy qilinmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beradi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida paxta va g'alla yetishtirishga nisbatan majburiy rejalardan voz kechmoqda. Bu qishloq xo'jaligida diversifikatsiyani kuchaytirish va boshqa mahsulotlar

ishlab chiqarishga yo'naltirish imkonini berdi. Paxta sanoatidagi monopoliyani tugatish orqali qishloq xo'jaligi yerlarida boshqa daromadli ekinlar, meva-sabzavot yetishtirish ko'lamini kengaytirishga imkoniyat yaratilmoqda. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. O'zbekiston suv resurslari cheklangan mamlakat bo'lganligi sababli tomchilatib sug'orish va boshqa zamonaviy sug'orish texnologiyalari joriy etilmoqda.

Davlat tomonidan fermerlar va dehqonlar uchun suvni tejash va to'g'ri boshqarish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha subsidiyalar ajratilmoqda. Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, texnika va uskunalarni yangilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yo'lidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Agrotexnikaning rivojlanishi hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam bermoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilish hajmi ortib bormoqda. Meva-sabzavotlar, quruq mevalar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari global bozorga yo'naltirilmoqda. Mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro standartlarga muvofiq mahsulot yetishtirish va qadoqlash imkoniyatlari yaratilmoqda. Qishloq joylarida infratuzilmani yaxshilash, jumladan, yo'llarni ta'mirlash, elektr energiyasi va suv ta'minotini yaxshilash, qishloq aholisini zamonaviy sharoitlar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Fermerlarga va kichik xo'jaliklarga kredit olishda qulay sharoitlar yaratildi. Qishloq xo'jaligida yangi texnika xarid qilish, urug'lik va o'g'itlar sotib olish uchun davlat subsidiyalari ajratilmoqda.

Bu islohotlar O'zbekiston qishloq xo'jaligini raqobatbardosh, samarali va innovatsion yo'nalishga yo'naltirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, aholining turmush darajasini oshirish va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.


Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, bu sohaning rivojlanishi O'zbekistonning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, xomashyo yetkazib berish va aholini ish bilan ta'minlashda katta o'rin tutadi.[1] 2024- yilning yanvar–mart va yanvar–iyun oylarida Buxoro viloyatining qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 4,2 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 103,3 foizga o'sdi. yanvar - iyun oylarida esa bu ko'rsatkich 15,1 trillion so'mga yetdi, bu esa 103,6 foizlik o'sishni anglatadi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

2024- yilning yanvar – mart oylarida 7,8 ming tonna sabzavot yetishtirildi, bu ko'rsatkich iyun oyiga kelib 276,5 ming tonnaga yetdi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmi yanvar–iyun oylarida 134,7 ming tonnaga yetib, 113,0 foizlik o'sish qayd etildi. Chorvachilik sohasida ham o'sish kuzatildi, jumladan go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi. Yanvar–mart oylarida 52,7 ming tonna go'sht ishlab chiqarilgan bo'lsa, iyun oyiga kelib bu raqam 135,1 ming tonnani tashkil etdi. Viloyat bo'yicha eng yirik qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari Jondor va

Buxoro tumanlarida qayd etildi. Yanvar-mart oylarida Jondor tumanida 539,0 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, iyun oyiga kelib bu raqam 1,9 trillion so'mga yetdi.[2]



1-rasm. Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi (2024- yil yanvar-mart; yanvar-iyun holati) [4]

Qishloq xo'jaligi sohasida fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari ham katta hissa qo'shdilar. Yanvar-mart oylarida xo'jaliklar umumiy hajmning 84,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, iyun oyiga kelib bu raqam 94,4 foizga yetdi. [2]

Qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi ko'plab manfaatdor tomonlar, jumladan fermerlar, davlat idoralari va xususiy sektorning samarali hamkorligiga bog'liq. Kelgusi yillarda ham ushbu rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Shu o'rinda hududning ijtimoiy-iqtisodiy tengligini ta'minlashga doir bir necha chora-tadbirlari haqida fikrlar bildirsak:

1. Mahalliy resurslardan samarali foydalanish

Qishloq xo'jaligi viloyatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallaydi. Buxoro viloyatida yetishtiriladigan sabzavot, meva, go'sht, sut kabi mahsulotlar nafaqat viloyat ehtiyojini qondiradi, balki eksport imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish mumkin.

2. Fermerlar va dehqonlarni qo'llab-quvvatlash

Tahlillar ko'rsatmoqda-ki Buxoro viloyatida dehqonchilik va chorvachilik katta ahamiyatga ega. Fermerlar va dehqonlarni yanada samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish, soliq imtiyozlari berish va texnik yordam ko'rsatish kerak.

3. Hududlararo rivojlanish tengligini ta'minlash

Viloyatning ba'zi tumanlarida iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqori bo'lsa, ba'zi hududlarda rivojlanish sekinroq kechmoqda. Hududlararo tengsizlikni bartaraf etish uchun past rivojlangan hududlarga sarmoyalar jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilishi lozim.

4. Chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish

Chorvachilik va baliqchilik Buxoro viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu sohalarni yanada rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish zarur.

5. Texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarni joriy etish

Qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlik va sifatni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish lozim. Bu borada sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

6. Ta'lim va malakani oshirish dasturlari

Qishloq xo'jaligi sektorida faoliyat yuritayotgan ishchilar va fermerlar uchun malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi zarur. Maxsus kurslar orqali yoshlarni ushbu sohalarga jalb qilish ham aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

7. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish

Viloyatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha choralar ko'rilishi lozim.

Xulosa

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u orqali sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi. Yuqoridagi chora-tadbirlar Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bir qatorda hududning ijtimoiy-iqtisodiy tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, viloyat iqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmatov N.J., Ro'ziyev O.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti"

2. www.buxstat.uz- Buxoro viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti.
3. www.agro.uz- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti.
4. O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.